

ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СРАВНИТЕЛЬНОГО АНАЛИЗА В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У СТУДЕНТОВ

Sultonova Durdona Tursunboy qizi

NamDPI o'zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti

Аннотация: В данной статье рассматривается технология использования сопоставительного анализа в формировании языковых компетенций школьников и необходимых компетенций учителя, новаторство, интеграция.

Ключевые слова: компетентность, педагогический анализ, образование, метод, интеграция.

TECHNOLOGY OF USING COMPARATIVE ANALYSIS IN THE FORMATION OF LINGUISTIC COMPETENCIES IN STUDENTS

Annotation: This article discusses the technology of using comparative analysis in the formation of linguistic competencies in schoolchildren and the necessary competencies of the teacher, innovation, integration.

Key words: competence, teacher's analysis, education, method, integration.

O'QUVCHILARDA LISONIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA QIYOSIY TAHLILDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada moktab o'quvchilarida lisoniy kompetensiyalarini shakillantirishda qiyosiy tahlildan foydalanish texnologiyasi va o'qituvchidagi kerakli kompetensiyalar haqida , innovatsiya , intergatsiya haqida fikr yuritiladi.

Key words: kompetensiya, o'qituvchi' tahlil, ta'lif, usul, integratsiya.

Bugungi kunda ta'limi kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, o'qituvchi hamda o'quvchilarning darslarda **lisoniy kompetensiyalarini** shakllantirish va muntazam tarzda rivojlantirib borish pedagogikaning dolzarb masalalariga kiradi. Kompetensiya – o'quvchilarning ma'lum sohada samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun ta'lif tayyorligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talab. Kompetentlilik ko'p qirrali bo'lib, uning bir necha talqinlari mavjud. Kompetentlilik o'quvchi tomonidan tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishni anglatadi. **Lisoniy Kompetentlilik** o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berilgan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal darajadagi bilim, ko'nikma, malakalari va amaliy tajribalarini o'z ichiga oladi. Xususiy kompetensiyalar bilan tayanch kompetensiyalar o'zaro farqlanadi. Tayanch kompetensiyalar o'quvchining istiqboldagi hayotiy-ijtimoiy faoliyati modeli hisoblanadi. O'quvchilar muayyan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga ega bo'lgach, o'zlarini egallagan kompetensiyalarini faoliyatlari orqali tatbiq eta oladilar. Tayanch

kompetensiyalar ko‘proq o‘quvchining istiqboldagi ijtimoiy faoliyatni uchun zarur hisoblanadi. Xususiy o‘quv fani doirasida o‘zlashtiriladigan kompetensiyalar esa, asosan, o‘quv va istiqboldagi kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlaydi.

Lisoniy Kompetensiyalar har bir mamlakat xalqining turmush tarzi, madaniy, ma’naviy hayoti, an’analaridan kelib chiqqan holda shakllantiriladi. O‘quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar kreativ, ya’ni ijodiy yaratuvchilik xarakteriga ega bo‘lib, ularni muntazam faollikka undaydi. Bunday kompetensiyalar sirasiga kommunikativ, axborotlar bilan ishlash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kabilarni kiritish va ular **qiyosiy tahlildan** foydalanish mumkin. O‘quvchilarda kompetensiyalardan foydalanish tajribasini hosil qilishga alohida e’tibor qaratish lozim. Buning uchun o‘quv dasturlari, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalarini kompetensiyaviy yondashuv asosida loyihalash, o‘qituvchilar tomonidan tanlanadigan ikkilamchi loyihalari tarkibiga kompetensiyalarni hosil qilishga xizmat qiladigan o‘quv materiallari, ta’limiy topshiriqlarni kiritish, raqamli didaktik vositalarni ishlab chiqishga xuddi shu nuqtai nazardan yondashish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Kompetentli yondashuv yagona ta’lim jarayonini ta’minlashning konseptual asosi sifatida taqdim etiladi. Shuning uchun ham u bugungi kunda ta’lim mazmunini yangilashni taqozo qilmoqda. O‘tgan asrning 90-yillaridayoq, kompetentlilik tushunchasi, bir tomondan yangi kashfiyotlar va ishlanmalarni muvofiqlashtirish imkonini berib, insonning bilish faoliyati va amaliy harakatlariga taalluqlidir. Ikkinchisi tomondan esa, har bir sinfda pedagogik vaziyat bilan bog‘liq holda ta’limiy talablarni aniqlashga ko‘maklashadi, deb yozgan edi H.C.Розов [1]. Kompetentlik tushunchasi so‘nggi yillarda asosan kasbiy ta’lim sohasidagi tadqiqotlarda keng qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Jumladan, S.T.Turg‘unov, M.B.Ma’murov, O’.Q.Tolipov, Sh.Q.Mardonov, G.T.Boymurodova, G.N.Ibragimovalarning ishlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasiga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etishning ayrim masalalari tadqiq etilgan. Kompetensiyaviy yondashuv doirasida tadqiqotlarni amalga oshirish umumiyligi o‘rtalama ta’lim maktablari davlat ta’lim standartlarini takomillashtirish bilan bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Bu sohada R.G.Safarova, M.M.Vahobov, Yu.M.Asadov, M.Pardaevalarning tadqiqotlarini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin. Umumiyligi o‘rtalama ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish haqida fikr yuritganda uchta sababni ko‘rsatib o‘tgan: integratsiyaning umumevropa va jahon miqyosidagi ko‘lami, ta’lim paradigmaсинing o‘zgarishi, ta’lim sohasidagi yo‘riqnomalar, ko‘rsatmalar, dasturlar va farmoyishlar[5]. O‘zbekistonda umumiyligi o‘rtalama ta’lim tizimini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrdagi “Chet tillarini o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasbhunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarorlari muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ta’lim faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni bilimni uzatish, uni qabul qilish, anglash, esda saqlash va amalda qo‘llay olishni nazarda tutadi. Bugungi kunda ta’limning barcha bosqichlarida yangi zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali va oqilona foydalanish va yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab dars o‘tish o‘quvchilarda ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish va shu asosida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda faolligini oshiradi. Ijodiy qobiliyatlarini aniqlash, ro‘yobga chiqarish, o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini shakllantirish va kafolatlangan yakuniy natijaga erishishishni ta’minlaydi, o‘quvchini o‘quv jarayonining faol qatnashchisiga aylantiradi.

Keng ma’noda "innovatsiya" pedagogik tizimga yangilik kiritish yo‘li bilan ta’lim-tarbiya jarayonini maqbullashtirish, samaradorligini oshirishni ko‘zda tutadi. Pedagogik tizimga uning ichki imkoniyatlarini hisobga olgan holda sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida kiritilgan yangiliklarnigina innovatsiya deb tushunamiz. Ushbu tizimni takomillashtirib, yuqori sifat va natijadorlikka erishishga oid fikr, g‘oya, nazariya, qoida, shakl, metodlar va vositalar tizimini pedagogik innovatsiyalar sifatida qabul qilish mumkin. Innovatsion ta’lim shundayki, u o‘zini rivojlantirish istagiga ega barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishi uchun sharoit yaratadi, boshqacha aytganda, innovatsion ta’lim rivojlanuvchi va rivojlantiruvchi ta’limdir. O‘quvchilarda o‘qish istagini shakllantirish va buni malakaga aylantirish – barcha innovatsion ta’limning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bunday ta’lim jarayoni o‘quvchining o‘quv-bilish faoliyatida faol ishtirokini va uning ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishni nazarda tutadi.

Ta’lim jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida innovatsiyalashtirish pedagogik jarayonda pedagog va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keluvchi muloqot jarayonining samarali bo‘lishi, mazkur jarayonning innovatsion mazmun-mohiyat kasb etilishidir. Dars jarayoniga yangiliklarni kiritish innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi. Innovatsion jarayon quyidagi uchta asosiy bosqichlarning rivojlanishi sifatida qarab chiqiladi: – fikrlarning shakllantirilishi; – o‘quvchilar tomonidan gipotezalar ishlab chiqish; – amaliy tarzda g‘oyalarning ishlab chiqilishi va yangilikning amaliyotda qo‘llanilishi. O‘qituvchi ta’lim tizimi bo‘yicha yangilik va g‘oyalarni amaliyotga tatbiq etib borishi fanni o‘qitishda innovatsion texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Innovatsion jarayonning rivojlanishida quyidagi bosqichlarni ajratib ko‘rsatiladi: – o‘zgarishlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash; – ma’lumotlarni yig‘ish va holatni tahlil qilish; – mavjud yangilikni tanlash yoki

mustaqil tarzda yangilikni ishlab chiqish; – joriy etish (o‘zlashtirish) to‘g‘risida qaror qabul qilish; – joriy etish, shu jumladan yangilikni tajriba sifatida ishlatish; –yangilikni o‘zlashtirib olish yoki uzoq muddat davomida qo‘llash natijasida uni kundalik amaliyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylantirish.

Ta’lim metodlarini tanlashning mezoni-dars jarayonida o‘quvchilar sonini hisobga olishdir. Agar ularning soni ko‘p bo‘lmasa, u holda faol o‘qitish metodlaridan foydalanib, o‘qitishni jadal sur’atlarda olib borish mumkin bo‘ladi. Agarda ko‘p bo‘lsa, ularning har biriga e’tibor berish uchun vaqt yetishmasligi natijasida tahlil oluvchilarni boshqarish murakkablashadi, bunda esa ta’limning interfaol metodlaridan guruhlararo olib borish lozim bo‘ladi. Buyuk mutafakkir Al Farobi o‘zining o‘qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o‘quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo‘llarini ham ko‘rsatish, ularning bilimlarning zarurligiga shakshubhasiz ishontirish kerak ekanligini uqtiradi.

NATIJALAR.

Darsda o‘quvchilarning hamkorligi ta’lim va tarbiya samaradorligini oshirishga yordam beradi. “...til faqat kishilar o‘rtasidagi oddiygina aloqa vositasi emas, balki til egalarining o‘zini qurshab turgan olamni bilish, qo‘lga kiritgan bilimlarini kelajak avlodga yetkazish vositasi hamdir”. Agar so‘zlovchi lisoniy strukturalarni o‘zlashtirsayu, ammo ulardan qanday va qaysi o‘rinlarda foydalanishni bilmasa, lisoniy qobiliyatga to‘liq egalik haqida fikr yuritib bo‘lmaydi. Shuning uchun hozirgi kunda lisoniy qobiliyati kuchli shaxsni tarbiyalamoq uchun ta’lim jarayonida o‘quvchilarning asosiy e’tiborini tilning sof ichki tuzilishini bilishdan tashqari ularning har biridan qaysi vaziyatlarda qanday foydalanishni bilishiga ham qaratishi lozim bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Tajiyev M va b. Pedagogik texnologiya – ta’lim jarayoniga tatbig‘i. – Toshkent: Tafakkur, 2010. – 118 b.
2. G‘ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M va b. Ona tili o‘qitish metodiksi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – B. 174.
3. Sobirov A. Uzluksiz ta’limda til kompetensiyasi //Nutq madaniyati va o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari . – Andijon, 2016. – B. 87.
4. Turdiyev N., Asadov Yu., Akbarova S. Umumiyo‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Niso Poligraf, 2007. – B. 4.
5. Ziyodova T. Matn yaratish texnologiyasi. – Toshkent: Fan. 2008. –B. 35.